SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)

2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I2Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 2 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg‘ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 2-son (Fevral, 2025). - 630 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Matkarimova Sadoqat Maqsudovna*
SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI ........ 13-19

*Matyakubov Xamdam Xamidjanovich*
MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBOʻYI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR OʻRTASIDAGI OʻZARO TAʼSIR VA HAMKORLIK ........ 20-24

*Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin*
TURKISTONDA JADIDLARNING TAʼLIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN ........ 25-29

*Хуррамова Саодат Хабибовна*
ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА ........ 30-37

*Toʻychiyeva Dilnoza Ikrom qizi*
ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI ........ 38-44

*Elboyeva Shaxnoza*
AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA BU BORADA OʻZBEKISTON TAJRIBASI ........ 45-50

*Kanimkulov Olimjon, Xikmatova Oʻgʻiloy*
TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BOʻLGAN TARIXI HAQIDA ........ 51-54

*Tojiev Alisher Sultannazirovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI ........ 55-60

*Bekbayev Bekjon*
XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN ........ 61-67

*Salayev Umrbek Kadambayevich*
JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BAʼZI CHIZGILAR ........ 68-71

*Roʻziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LOʻLILAR IJTIMOIY HAYOTINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 72-78

*Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi*
ICHKI SAVDO QOʻQON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) ........ 79-84

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kazakov Olim Sabirovich*
XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH ........ 85-89

*Исламутдинова Дина Файзрахмановна*
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 90-98

*Alikulov Mehmonali Salahiddin o‘g‘li*
QISHLOQ XO‘JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA YO‘NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI ........ 99-106

*Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor*
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI ........ 107-113

*Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod*
CHO‘L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LARI ........ 114-121

*Aliyarov Olim Abdug‘aparovich*
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ........ 122-132

*Komilov Bakhtiyorjon*
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA ........ 133-144

*Djumanov Saitmurod Alibekovich*
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 145-150

*Yariyev Sherzod Shukurjanovich*
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI ........ 151-155

*Matkarimov Feruz Bekturdiyevich*
MINTAQADA TO‘QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 156-160

*Xaydarova Durdona, To‘xtayeva Moxinur*
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 161-166

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yusubov Jaloliddin Kadamovich*
ABU NASR FOROBIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI ........ 167-175

*Nosirxo‘jayeva Gulnora Abduqahhorovna*
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA’NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI ........ 176-179

*Xoliqov Yunus Ortiqovich*
BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI ........ 180-184

*Berdaliyeva Sevara*
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB “KUTADGU BILIG” ........ 185-191

*Parpiyev Muhammadjon Tolibovich*
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI ........ 192-197

*Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi*
IBN ARABIY “VAHDATUL VUJUD” TA’LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI ........ 198-202

*Ulug'murodov Elyor Saydulloevich*
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI ........ 203-206

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI ........ 207-213

*Xasanov Boburjon Xakimovich*
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI ........ 214-219

*Shokirov Mubin Rustamovich*
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT ........ 220-225

*Ismoilov Maxammadixon*
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI ........ 226-230

*Shokirov Murod Rustamovich*
YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI ........ 231-234

*Hamroyev Saidjon Sanoyevich*
YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI ........ 235-239

*Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li*
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) ........ 240-243

*Ulug'ov Jasur Nasirdinovich*
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI ........ 244-249

*Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li*
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA ........ 250-253

*Ibragimov Kudrat*
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI ........ 254-260

*Oripov Axmadjon Muxammadjonovich*
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI ........ 261-267

*Ibragimova Zulayxo Karimbayevna*
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI ........ 268-274

*Abdullayev A'zam Abdiyevich*
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI ........ 275-281

*Ochilov Azimjon Tuxtamishovich*
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI ........ 282-285

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI


*Raxmanova Sarvinoz Alisherovna*
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA OʻZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 286-289

*Kaxarova Iroda Sidikovna*
MODAL SOʻZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH ........ 290-296

*Babadjanova Nazokat Davronbekovna*
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI ........ 297-302

*Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna*
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUGʻ SALTANAT" ........ 303-308

*Hatamova Kamola Toshmurod qizi*
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA ........ 309-316

*Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna*
TERMINOLOGIYANING OʻZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN OʻRGANILISHI ........ 317-321

*Otajonova Dildor Baxtiyarovna*
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI ........ 322-326

*Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich*
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES ........ 327-331

*Xoshimova Oydina Shuxrat qizi*
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING OʻRNI VA RANGLAR IFODASI ........ 332-338

*Babayeva Iroda*
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING ........ 339-342

*Fozilov Odil Yuldashevich*
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE........ 343-346

*Raxmonova Dildora Mirzakarimovna*
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) ........ 347-351

*Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna*
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI ........ 352-357

*Xamidova Sayyora Nurmatovna*
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 358-363

*Mengboyev Azizbek Alijon oʻgʻli*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOGʻISHTIRMA TADQIQI ........ 364-368

*Hayitova Shohida Erkin qizi*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOGʻISHTIRMA TAHLILI ........ 369-373

*Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi*
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI ........ 374-378

*Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich*
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O‘RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O‘ZIGA XOSLIGI ........ 379-385

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Мухитдинова Фирюза*
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА ........ 386-393

*Uzakova Go‘zal Sharipovna*
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI ........ 394-403

*Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat*
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ........ 404-414

*Yakubova Iroda Bahramovna*
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI ........ 415-419

*Obidov Tolibjon Avezxanovich*
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI ........ 420-425

*Tuxtashev Sherzod Azimovich*
JINOYAT ISHINI TO‘XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI ........ 426-430

*Maxamatov Maxmud Maxamataminovich*
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI ........ 431-436

*Rahmatov Elyor Jumaboyevich*
BOJXONA MA’MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ISHTIROKI ........ 437-441

*Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna*
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI ........ 442-447

*Shermatov Nuriddin*
RAQAMLI ERADA SUN’IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA ........ 448-455

*Juraeva Asal*
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS ........ 456-461

*Собиров Саидбек Махмудович*
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ ........ 462-467

*Nurbayev Muzaffar Erkinovich*
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 468-478

*Qudratillayev Jaxongir Zokirjon oʻgʻli*
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI ........ 479-485

*Xabibullayev Azizillo Lutfullo oʻgʻli*
SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI OʻRTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR ........ 486-491

*Toʻxtayev Oʻktamjon Zarifjon oʻgʻli*
MURAKKAB ASHYOLARNING OʻZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI ........ 492-500

*Yusupov Oʻktamboy*
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI ........ 501-509

*Murodxonov Muhammadnur*
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING OʻRNI ........ 510-518

*Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса*
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ........ 519-523

*Qudratillayev Xazratali Zokirjon oʻgʻli*
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI ........ 524-530

*Umarov Abbosjon Asliddin oʻgʻli*
SUGʻURTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI ........ 531-536

*Хайдарова Хилола Анваровна*
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ ........ 537-542

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Ibraximov Sanjar Urunbayevich*
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI OʻRTASIDAGI OʻZARO BOGʻLIQLIGI ........ 543-547

*Karimov Akramjon Zaynobidinovich*
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 548-554

*Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich*
7-9 YOSHLI OʻQUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI OʻYINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ........ 555-561

*Karimov Qayum Mamashayevich*
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI OʻQITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ........ 562-569

*Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI ........ 570-576

*Qodirov Azamat Muxriddinovich*
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA ........ 577-582

*Тлеумуратова Абадан Бекбановна*
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ........ 583-585

*Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich*
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ........ 586-592

*Mamaziyayev Oblaberdi*
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI ........ 593-598

*Isoqov Murod Madaminjonovich*
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI ........ 599-605

*Nasriddinova Hulkar Komiljonovna*
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI ........ 606-610

*Allayeva Hafiza Rustam qizi*
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI ........ 611-614

*Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna*
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI ........ 615-621

*Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li*
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI ........ 622-625

*Elova Sitora Axmatkulovna*
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI ........ 626-629

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 2 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 25 January 2025
**Accepted:** 1 February 2025
**Published:** 10 Feburary 2025

*Article / Original Paper*

# SOCIAL-PHILOSOPHICAL FACTORS OF THE ORIGIN OF THE EASTERN RENAISSANCE

**Parpiyev Mukhammadjon Tolibovich**
Andijan state pedagogical institute
Associate Professor of the Department of Social Sciences,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

**Abstract.** This article examines the beginning of the first Renaissance in the East and the socio-philosophical factors influencing it. In particular, the process of revival in the region was based on various reasons, their connection with historical, cultural, economic and political factors, the influence of many external and internal conditions for the successful development of this process, political stability, the influence of Islamic civilization, the fact that Central Asia was a center of trade and cultural exchange due to its location on the Silk Road, the preservation of cultural and national traditions and their impact on the development of science, etc., are analyzed in depth.

**Keywords:** renaissance, renaissance, science, Islamic civilization, religious sciences, trade and cultural exchange, cultural growth, cultural and national traditions, architecture and art, international communication, greco-roman culture, libraries, centers of learning.

# SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI

**Parpiyev Muhammadjon Tolibovich,**
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sharqda ilk uyg‘onish davrining boshlanishi va unga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-falsafiy omillar o‘rganilgan. Xususan, mintaqadagi uyg‘onish jarayoni turli sabablarga asoslangan bo‘lib, ularni tarixiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bog‘liqligi, bu jarayonning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun ko‘plab tashqi va ichki sharoitlar ta’siri, siyosiy barqarorlik, islom sivilizatsiyasining ta’siri, Markaziy Osiyo Ipak yo‘lida joylashganligi tufayli savdo va madaniy almashinuv markazi bo‘lganligi, madaniy va milliy an’analarning saqlanib qolgani va ularning ilm-fan rivojiga ta’siri kabi masalalar chuqur tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** renessans, uyg‘onish davri, ilm-fan, islom sivilizatsiyasi, diniy ilmlar, savdo va madaniy almashinuv, madaniy yuksalish, madaniy va milliy an’analar, me’morchilik va san’at, xalqaro muloqot, yunon-rim madaniyati, kutubxonalar, ilm markazlari.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N28

**Kirish.** Markaziy Osiyodagi uyg‘onish davri, insoniyat tarixida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy taraqqiyotning yuksalishi bilan ajralib turadi. Bu davr asosan Somoniylar, Qoraxoniylar va Temuriylar davlatlari hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Ushbu mintaqadagi uyg‘onish jarayoni turli sabablarga asoslangan bo‘lib, ularni tarixiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan izohlash mumkin. Bu jarayonning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun ko‘plab tashqi va ichki sharoitlar muhit yaratgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday yozadi: “Yangi O‘zbekiston tushunchasida mujassam

boʻlgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni roʻyobga chiqarish yoʻlida amaliy harakatlarga undab keldi. Bu asriy orzu ilk oʻrta asrlarda xalqimiz erishgan birinchi Renessansga va keyingi asrlarda Ikkinchi Uygʻonish davriga asos boʻldi., ularning maʼnaviy poydevori sifatida xizmat qilgan, desak, yanglishmagan boʻlamiz” [1; 15–16-b.]. Har qanday uygʻonish davrining asosida oʻtgan masala taraqqiyotning toʻgʻri yoʻlini tanlay olish, ezgu maqsad va muddaolarni koʻzlash, shu bilan birgalikda mavjud tarixiy imkoniyatdan foydalanib qolish bilan bogʻliq ravishda kechadi. Bu ana shu davr madaniy muhiti vakillari, hukmdorlar va soha rivojiga hissa qoʻshadigan davlat amaldorlarining pozitsiyasi boʻlsa, kelajak avlod bu jarayonni avvalambor uygʻonish davriga taʼsir koʻrsatgan omillar nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Ushbu sabablarni kengroq tushunish uchun ularning bir-biri bilan qanday bogʻliq ekanligini tahlil qilish kerak.




*1.1-rasm. Ilk Uygʻonish davriga taʼsir koʻrsatgan omillar*

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Markaziy Osiyoda uygʻonish davrining kelib chiqishida muhim sabablardan biri siyosiy barqarorlik edi. Xususan, Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida hududda qudratli va markazlashgan davlat tuzilmasi tashkil etildi. Buxoro, Samarqand va boshqa yirik shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida tanildi. Somoniylar oʻz hududida ilmni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratishgan va olimlarga, shoirlarga, oʻqituvchilarga yuqori hurmat koʻrsatgan. Bu siyosiy himoya ilm-fanning yuksalishi uchun zarur sharoitlarni yaratdi.

Ushbu uygʻonishning asosiy xususiyatlaridan biri islom sivilizatsiyasining taʼsiri boʻldi. VII asrdan boshlab Islom dinining Markaziy Osiyoga tarqalishi ilmiy va madaniy tiklanishga katta turtki berdi. Islom olamida ilm-fanni oʻrganishni targʻib qiluvchi qadriyatlar hukmron boʻlib, ilm-maʼrifat bilan shugʻullanish maʼnaviy vazifa sifatida qabul qilingan. Qurʼonning birinchi oyatlaridan biri “Oʻqi” (Iqro) soʻzi bilan boshlanishi bu madaniyatning ilmga qanchalik ahamiyat berganini anglatadi. Shuningdek, hadislarda ham ilmni oʻrganishning zarurligi koʻp

bor ta’kidlangan. Natijada, islom madrasalarida nafaqat diniy ilmlar, balki matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo va boshqa fanlar ham oʻqitilgan. Uygʻonish davri allomalari komparativistikasi bilan shugʻullangan olim A.Muhemedovning fikricha: “Islom dini mamlakatimiz hududiga VIII asrdan boshlab kirib kelgan boʻlsa, arab tili aholi orasidagi muloqot hamda madaniy taraqqiyot vositasiga aylandi. Abbosiylar hukmronligi davrida xalifalik ulkan hududlarni oʻziga birlashtirgan, lekin xalqlarning milliy-ozodlik harakatlari natijasiga parchalanib ketgandi. Arablar tomonidan olib borilgan ijtimoiy siyosat hamda xalq madaniy hayotiga olib kirilgan yangilik va oʻzgarishlar natijasida arab tili Xitoydan Misrga qadar choʻzilgan ulkan hududlarda asosiy til sifatida hurmat qozongandi”[2; 16-b.]. Ma’lumki, din nafaqat dunyoqarash shakli, balki jamiyat a’zolarini birlashtirib turadigan, ma’lum bir maqsad va manfaatlar yoʻlida safarbar etish xususiyatiga ham egadir. Lekin, Sharqda ham Gʻarbda ham din hozirgi qarashlardan farqli tushunilgan. Bugungi diniy qarashlarimizning asosida Markaziy Osiyo xonliklariga tanazzuliga asos boʻlgan diniy qarashlar bilan birga umuman dinga qarshi kurashgan sovet davlatining rasmiy mafkurasi qorishigʻi yotadi. Lekin, dastlabki Uygʻonish davrlarida dinni mutlaqlashtirish, har bir jarayonga diniy yondashuv va jamiyatda diniy betoqatlik kayfiyati boʻlmagan va shu sababli har ikki makonda ham ijobiy rol oʻynagan.

Markaziy Osiyo Ipak yoʻlida joylashganligi tufayli savdo va madaniy almashinuv markazi boʻlgan. Ipak yoʻli orqali Xitoy, Hindiston, Eron va Yevropa oʻrtasida savdo qilinar, bu esa turli hududlarning ilm-fan va madaniyat sohasidagi tajribasini tarqatishga imkon berardi. Savdo yoʻnalishlarining rivojlanishi shaharlarning iqtisodiy yuksalishiga sabab boʻldi. Bu holat, oʻz navbatida, ilm-fan va madaniyatga sarmoya kiritish imkoniyatini oshirdi. Buxoro, Samarqand, Xiva va Marv kabi shaharlar Ipak yoʻlidagi muhim markazlar boʻlib, ularda ilmiy markazlar, madrasalar va kutubxonalar tashkil etilgan.

**Muhokama va natijalar.** Markaziy Osiyo uygʻonish davrida ilm-fanning turli sohalarida mashhur olimlar yetishib chiqqan. Masalan, Abu Nasr Forobiy falsafa va logika sohasida mashhur asarlar yaratgan. Uning asarlari nafaqat islom olamida, balki Gʻarbda ham katta ahamiyat kasb etgan. Abu Ali ibn Sino tibbiyot sohasida yirik kashfiyotlar qilgan va uning “Tib qonuni” asari dunyoning koʻplab tillariga tarjima qilingan[3]. Ushbu olimlar oʻz faoliyatini himoya qilib kelgan davlat hukmdorlari va ularning ilm-fanga boʻlgan hurmati tufayli buyuk yutuqlarga erishdilar.

Buyuk olimlar va ijodkorlar mintaqadagi madaniy yuksalishda muhim oʻrin tutgan. Masalan, Mahmud Qoshgʻariyning (XI asr) “Devonu lugʻatit turk” asari turkiy tillar va ularning madaniyati haqidagi eng muhim manbalardandir. U turkiy xalqlarning boy madaniy merosini oʻrganishga bagʻishlangan ilk yirik asarlardan biri boʻlib, tilshunoslik va madaniy antropologiya sohalarida ulkan ahamiyatga ega. Bu haqida alloma ijodi bilan shugʻullangan olim X.Mardonov yozadi: “Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asari turkshunoslikning dastlabki ilmiy asaridir. Mazkur asar dastlabkigina boʻlib qolmay, turkshunoslik tarixida yaratilgan asarlarning eng mukammali, shunga muvofiq Mahmud Qoshgʻariyni buyuk tilshunos va turkshunosligimizning asoschisi deyish mumkin” [4; 108-b.]. Madaniy yuksalish uchun zarur boʻlgan muhim elementlardan biri barcha atributlarni qamrab olgan yozma tildir. Asarda muallif oʻz davri uchun til konstitutsiyasini yaratib Uygʻonish davri uchun fundamental zamin yaratdi.

Markaziy Osiyo uygʻonishining muhim sabablaridan biri madaniy va milliy an’analarning saqlanib qolgani va ularning ilm-fan rivojiga ta’sir koʻrsatganidir. Turkiy va forsiy tillar ushbu mintaqada ilmiy va adabiy ijodning asosiy vositasi boʻlgan. Masalan, Alisher Navoiyning asarlari turkiy adabiyotning yuqori choʻqqisi hisoblanadi. Uning ijodi faqat adabiyot bilan cheklanib qolmay, ma’naviyat va madaniyatning turli jihatlarini qamrab olgan.

Ushbu uygʻonish davrida me’morchilik va san’at ham yuqori darajada rivojlangan. Samarqanddagi Registon majmuasi, Bibi Xonim masjidi, Shohizinda majmuasi va boshqa inshootlar nafaqat me’morchilikda, balki madaniy rivojlanishda ham ulkan ahamiyatga ega boʻlgan. Bu inshootlar hozirgacha nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun dunyo madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

Iqtisodiy jihatdan olganda, Markaziy Osiyoning tabiiy resurslarga boyligi va uning strategik geografik joylashuvi mintaqada iqtisodiy taraqqiyotga turtki bergan. Iqtisodiy yuksalish ilm-fan va madaniyat rivojlanishi uchun moliyaviy resurslar yaratgan. Bu holat olimlar va ijodkorlarga qoʻshimcha imkoniyatlar taqdim etgan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo uygʻonishining muvaffaqiyati xalqaro muloqotlar orqali boshqa mintaqalarning ilmiy va madaniy yutuqlarini qabul qilishi bilan ham bogʻliq. Xususan, Hindiston, Xitoy va Eron madaniyatlari bilan aloqalar ilm-fan va texnologiyalarning mintaqada tezroq tarqalishiga xizmat qilgan. Bularning barchasi mintaqada uygʻonish jarayonini yanada kuchaytirdi.

Markaziy Osiyo uygʻonishi insoniyat tarixidagi eng muhim madaniy va ilmiy tiklanishlardan biri boʻlib, uning ta’siri hozirgi kungacha sezilib turadi. Bu jarayon nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham ilm-fan va madaniyat rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan. Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlar faqat Markaziy Osiyo madaniyati uchun emas, balki butun dunyo sivilizatsiyasi uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Hozirda ushbu uygʻonish davrining sabablari va natijalarini yanada chuqur oʻrganish ilm-fanning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda.

Qoraxoniylar davridagi madaniy yuksalish (IX-XII asrlar) Markaziy Osiyo tarixida muhim oʻrin tutadi. Ushbu davrda ilm-fan, madaniyat, arxitektura va ijtimoiy hayotda katta oʻzgarishlar kuzatildi. Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi ostidagi hududlarda madaniy yuksalishning kelib chiqishi uchun bir qator sabablar mavjud boʻlib, ularning muvaffaqiyatli amalga oshishi turli omillarga bogʻliq edi. Ushbu jarayonlarni atroflicha oʻrganish orqali Qoraxoniylar davrining madaniy merosini yaxshiroq tushunish mumkin. Qoraxoniylar davlatining barqaror siyosati madaniy yuksalish uchun muhim asos boʻlgan. Davlat hukmdorlari ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga katta ahamiyat bergan va olimlar, shoirlar, ijodkorlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan. Ular oʻz hududida madaniy markazlarni tashkil qilishga alohida e’tibor qaratishgan. Madrasa, masjid va kutubxonalarning barpo qilinishi Qoraxoniylar davrining oʻziga xos madaniy xususiyati hisoblanadi. Buxoro va Samarqand kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida tanilgan. Mazkur shaharlarda qurilgan inshootlar nafaqat diniy ehtiyojlar uchun, balki ilmiy va madaniy tadqiqotlar uchun ham xizmat qilgan.

Islom dinining ta’siri Qoraxoniylar davridagi madaniy yuksalishning muhim omillaridan biri boʻldi. Islom faqat din sifatida emas, balki madaniy va ijtimoiy tizim sifatida ham ahamiyatli boʻlib, ilm-fan va ma’rifatning rivojlanishiga turtki berdi. Islom olamining ma’naviy asoslari, masalan, ilmni qoʻllab-quvvatlash va uni tarqatishga boʻlgan chaqiriq, Qoraxoniylar

hukmronligidagi hududlarda keng qoʻllanildi. “Ilm oʻrganish har bir musulmon uchun farzdir” kabi hadislar olim va ijodkorlarning ijtimoiy obroʻsini oshirdi. Natijada, ilm-fan va sanʼatga qiziqish oshdi, bu esa madrasa va boshqa taʼlim muassasalari faoliyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Qoraxoniylar davridagi savdo yoʻllari, jumladan, Ipak yoʻli ham madaniy yuksalishning asosiy sabablaridan biri boʻlgan. Savdo faqat iqtisodiy rivojlanishga emas, balki madaniy almashinuvlarga ham xizmat qilgan. Savdo yoʻnalishlari orqali Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi madaniy taʼsir almashinuvi amalga oshgan. Turli xalqlarning anʼanaviy bilimlari, texnologiyalari va ijodiy uslublari bir-biri bilan uygʻunlashgan. Bu jarayon Qoraxoniylar davridagi madaniy hayotga yaqqol taʼsir koʻrsatgan.

Qoraxoniylar davridagi arxitektura va sanʼat rivoji ham madaniy yuksalishning muhim koʻrsatkichi boʻlib xizmat qilgan. Bu davrda qurilgan inshootlar nafaqat ularning arxitektura uslubi, balki ularning madaniy ahamiyati bilan ham ajralib turadi. Jumladan, Qoraxoniylar davrida qurilgan masjidlar, madrasalar va maqbaralar oʻz zamonasining ilgʻor meʼmorchilik anʼanalarini namoyon etgan. Samarqanddagi Shohizinda yoki Toshkent yaqinidagi katta masjidlar shunday madaniy rivojlanishning namunasidir.

Qoraxoniylar davridagi madaniy yuksalishni taʼminlagan yana bir muhim omil xalqning oʻz anʼanaviy qadriyatlarini saqlab qolishga boʻlgan intilishi edi. Turkiy xalqlar oʻzlarining boy folklori, qoʻshiqlari va epik dostonlari bilan madaniy hayotni boyitishda davom etganlar. Ushbu anʼanalar Qoraxoniylar davrida yangi qirralarga ega boʻlgan, shuningdek, islomiy qadriyatlar bilan uygʻunlashgan.

Maʼlumki, renessans atamasi dastlab gʻarbda vujudga kelgan. Fransuzchadan “uygʻonish” deb tarjima qilinishiga sabab antik davr yunon-rim madaniyatining gullab-yashnash va ilk oʻrta asrlarda Yevropadagi madaniy turgʻunlikdan yangi bosqichga qaytish maʼnosida ishlatilgan. Yevropa tillaridagi – farangcha “Renaissance”, italyancha “Rinascimento” soʻzi qayta tirilish va uygʻonish degan maʼnolarni anglatadi. Yevropaliklar oʻzlarining cherkov taʼlimoti boʻyicha uzoq davom etgan asrlarini oʻlik va qattiq uyqudagi asrlar deb bilishgan [5; 239-bet.]. Markaziy Osiyo madaniyatida bexabar mutaxassislar Sharq uygʻonishini qoʻllashga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Aslida esa Markaziy Osiyolik allomalar ijodiga yunon-rim madaniyati katta taʼsir koʻrsatdi va ilmiy asosini tashkil qildi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek: “Hammangizga yaxshi maʼlum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mashʼalasi toʻqqizinchi – oʻn ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari oʻnlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos taʼsir koʻrsatdi” [6].

Markaziy Osiyo allomalari boʻlgan Farobiy, Ibn Sino va Beruniy oʻzlarining ilmiy va madaniy merosida yunon-rim ilm-fan anʼanalaridan keng foydalanganlar. Ularning falsafiy qarashlari ilk Uygʻonish davrining mohiyatini belgilab berdi. Ularning asarlari yunon-rim falsafasi bilan uygʻunlashtirilgan holda islomiy ilm-fan dunyoqarashini boyitdi. Bu aloqalar nafaqat ularning asarlari mazmuniga, balki global ilm-fan taraqqiyotiga ham ulkan taʼsir koʻrsatgan. Yunon falsafasi, tibbiyoti va astronomiyasi Islom madaniyatining ilmiy tizimiga uygʻunlashtirilgan holda rivojlantirilgan.

Shuningdek, bu davrida ilm va ma’rifatni tarqatishning institutsional asoslari yaratilganligi ham madaniy yuksalishga yordam bergan. Madrasalar, kutubxonalar va ilm markazlari ilm-fan taraqqiyotining muhim nuqtalari sifatida faoliyat yuritgan. Mazkur muassasalarda nafaqat diniy ilmlar, balki tabiiy fanlar, astronomiya, tibbiyot, tilshunoslik va boshqa soha boʻyicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

IX-XII asrlardagi madaniy yuksalishning ahamiyati bugungi kunda ham dolzarbdir. Bu davr nafaqat Markaziy Osiyo madaniyati uchun, balki butun islom sivilizatsiyasi uchun yorqin misol boʻlib qolmoqda. Bu davrining ilmiy va madaniy merosi hanuzgacha oʻrganilmoqda va uning muhim jihatlari zamonaviy tadqiqotchilar uchun qadrli manba boʻlib xizmat qiladi. Bu davrida mintaqadagi madaniy yuksalish bir qator sabablarga bogʻliq boʻlib, ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bogʻliq. Siyosiy barqarorlik, savdo yoʻllarining faoliyati, diniy qadriyatlarning hukmronligi, ilmiy va ijodiy faoliyatga boʻlgan hurmat, xalqning an’anaviy madaniyatga boʻlgan munosabati va me’morchilik an’analarining rivoji Markaziy Osiyo madaniyatining jahon tarixidagi ahamiyatini belgilab berdi.

**Xulosa.** Markaziy Osiyodagi IX-XII asrlardagi ilk Uygʻonish davri nafaqat ilm-fan va madaniyat rivojlanishi, balki uning falsafiy mohiyati bilan ham ahamiyatlidir. Bu davrda insoniyat tarixida ilk bor inson aqli, mantiq va ma’rifatga boʻlgan ishonch asosiy falsafiy tamoyil sifatida shakllandi. Ilm-fan va falsafa uygʻunlashgan holda inson hayotining ma’nosi, jamiyatning axloqiy asoslari va tabiatning qonuniyatlarini tushunishga harakat qilindi. Markaziy Osiyo allomalari bu jarayonning yetakchilari boʻlib, ularning asarlari falsafiy fikrni chuqurlashtirishga xizmat qildi.

Bu davrning falsafiy mohiyati inson ongi va mantiqning cheksiz imkoniyatlarini e’tirof etishda, ilm va axloq uygʻunligiga boʻlgan ishonchda namoyon boʻladi. Ilk Uygʻonish davri allomalari ilm-fanni inson hayotining markaziy oʻrinda koʻrib, uning jamiyatdagi roliga katta ahamiyat qaratgan. Bu jarayon Markaziy Osiyo madaniy merosini jahon sivilizatsiyasi tarixida oʻchmas iz qoldirgan.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent.: Oʻzbekiston, 2022. –15-16 b.
2. A. Muxamedov. Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy merosining komparativistikasi. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2024. – 16 b.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 1993. 1-3-jildlar.
4. X. Mardonov. ““Devonu lugʻotit turk”ning yaratilishi va manbalari” International scientific journal of Biruni, № 3, 2023. – 108 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. –Toshkent.: Hilol nashr, 2022. – 339 b.
6. https://president.uz/oz/lists/view/3864 - Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻqituvchi va murabbiylar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Murojaat etilgan sana: 07.01.2023.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).